

CHET TILLARNI EGALLASHNING UMUMYEVROPA KOMPETENSIYALARI (CEFR, GER)NING MAQSAD, VAZIFALARI XUSUSIDA

Latipova Dilfuza Amrillayevna,

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

Email: ldilfuza313@gmail.com

Nuraliyeva Sarvinoz Hamraqulovna,

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

Email: snh1908@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada chet tillarni egallashning umumyevropa kompetensiyalari haqida so‘z boradi. Kompetensiyalarning yaratilish tarixi va ularning mazmun-mohiyati bilan tanishtiriladi. Kompetensiyalarni yaratishdan maqsad, uning afzalliklari tahlil qilinadi. Respublikamizda chet tili ta’limini tashkil qilishda ushbu xalqaro hujjatdan foydalanishning ijobiy tomonlari tushuntirib beriladi.

Kalit so‘zlar: chet til, CEFR, GER, kompetensiya, Umumyevropa til siyosati hamkorligi tavsiyalari, til bilish bosqichlari, o‘quv rejalar, o‘qitish dasturi yo‘nalishlari, o‘quv qo‘llanmalar, sifat ko‘rsatkichlari.

Kun sayin ilgarilab borayotgan hozirgi dunyoda zamon bilan hamohang tarzda yangiliklardan xabardor bo‘lib borish, ularni o‘z hayotida, kasb faoliyatida qo‘llash uchun har bir mutaxassis chet tilini mukammal bilishi talab qilinmoqda. Hamma narsa global miqyosda amalga oshirilayotgan bir vaqtda, chet tillarni o‘rganish ham globallashtirilmokda. Bu esa butun dunyo bo‘ylab muloqot qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Muloqot yangi imkoniyat eshiklarini ochadi. Chet tilini bilish (2 tilli bo‘lish) zarurati- bu har bir insonning global jamiyatda o‘z dolzarbligini tasdiqlash belgisidir. Chet tillarni mukammal egallagan va dunyo standartlariga javob beradigan kadrlar yetishtirish esa O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimiga chet tillarni o‘rgatish bo‘yicha xalqarohujjatlarga asoslangan uzluksiz ta’lim tizimining davlat ta’lim standartlarini joriy etish bilan ta’minlanadi.

Chet tilini o‘rganish va o‘rgatishga bag‘ishlangan turli nashrlarda “Chet tillarni egallashning umumyevropa kompetensiyalari” haqida tez-tez so‘z boradi. Xo‘sh, bu nima degani? “Chet tillarni egallashning umumyevropa kompetensiyalari” ingliz tilida CEFR, nemis tilida GER atamaları bilan ifodalanadi.

CEFR-(inglizcha) Common European Framework of Reference.

GER-(nemischa) Gemeinsamer Europäischer Referenzrahmen für Sprachen: lehren, lernen, beurteilen.

“Chet tillarni egallashning umumyevropa kompetensiyalari” (Kompetensiyalar)- bu til o‘rganuvchi va o‘rgatuvchilar uchun tilni egallash, undan muloqot va aloqa vositasi sifatida foydalanishda kengqamrovli tavsiyalardir. Kompetensiyalar- Yevropada tillarni o‘rganish va o‘rgatishni ko‘zda tutadigan o‘quv rejalari, o‘qitish dasturi yo‘nalishlari, o‘quv qo‘llanmalari va sifat ko‘rsatkichlarini yaratish hamda test sinovlarini tashkillash va o‘tkazish uchun asos vazifasini bajaradi.

1991 yil noyabr oyida Shveysariyaning Rushlikon shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro simpoziumda davlatlararo birinchi marta tilni egallash kompetensiyalarini bosqichlarga bo‘lish g‘oyasi muhokama qilindi. U quyidagicha nomlangan edi: ”Yevropada til o‘rganishda qulaylik va mantiqiylik: Maqsadlar, baholash, sertifikatlash”. Bu g‘oyadan ko‘zlangan maqsad- Yevropa a‘zo mamlakatlari orasida til o‘rganishni kuchaytirilgan mobillikda, samarali xalqaro kommunikatsiya va qiyoslash orqali o‘rganishni jadallashtirishdan iborat edi. Buning uchun til o‘rganishda umumiy kompetensiyalarni rivojlantirish va bunda Yevropadagi turli ta‘lim tizimlarini hisobga olishga harakat qilindi.

Shunday qilib, kompetensiyalar 90- yillarda Yevropa kengashi tomonidan ishlab chiqildi va 2001 yilda birinchi marta e‘lon qilindi. 2001 yil “Yevropa tillar yili” deb nomlanganligi munosabati bilan kompetensiyalarning nemischa tarjimasi ishlab chiqildi. Bu tarjima Gyote institutining tashabbusiga binoan, Avstriya ta‘lim vazirligi va nemis tili bo‘yicha til diplomi birlashmasi (nemischa: ÖSD) hamda Schveysariya kantonlararo ta‘lim direktorlari konferensiyasi (nemischa: EDK) bilan hamkorlikda amalga oshirildi. Shu vaqtning o‘zida kompetensiyalarning nemischa tarjimasi o‘zining inglizcha asl nusxasi bilan birga Schveysiyaning Lund shahrida “Yevropa tillar kuni” (nemischa EDL)ga bag‘ishlangan tadbirda birinchi marta taqdim qilindi.

“Chet tillarni egallashning umumyevropa kompetensiyalari” Yevropa tillarini o‘rganish va o‘rgatish, tilni egallash darajasini umumiy mezonlar bo‘yicha baholash hamda qiyoslash imkonini beradigan yagona tizimdir. Bu tizim butun Yevropada tan olingan va tillar bo‘yicha standartlar tayyorlash va o‘quv qo‘llanmalari yaratishda poydevor vazifasini bajaradi. Kompetensiyalar Yevropadan tashqari Misr, Yaponiya, Kolumbiya, Koreya, Fillipin, Lotin Amerikasi va Osiyoning ayrim davlatlarida ham qabul qilingan va tan olingan. Bugungi kunda sinov sertifikati AQSh, Kanada, Avstraliya, Yevropa va Osiyo oliy o‘quv yurtlarida o‘qish uchun topshiriladi. Kompetensiyalar til siyosati, ko‘ptillilik va individual turlitillilikni qo‘llab-quvvatlashni maqsad qiladi. Shuningdek, zamonaviy tillar sohasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirishni ham ko‘zda tutadi. Til o‘rganish, o‘rgatish va baholash masalalari bo‘yicha “Tavsiyalar“ o‘qituvchilar, malaka oshiruvchilar, qo‘llanma va darslik mualliflari, ta‘lim standartlari ijodkorlari, til o‘rganish va o‘rgatish masalalari bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

„Tavsiyalar“ xususiyatiga ko‘ra, keng qamrovli (nem:umfassend), qulay (nem:transparent) va mantiqiy (nem:kohärent) hisoblanadi.

Keng qamrovli deganda, tilga oid barcha bilimlar, ko‘nikma va malakalar hamda ularni amalda qo‘llay bilish inobatga olinishi va barcha foydalanuvchilarni ulardan foydalana olish darajasida qurollantirish lozimligi tushuniladi.

Qulay deganda, „Tavsiyalar“dagi ma‘lumotlar aniq, tushunarli, foydalanuvchilar uchun oson idrok qilinadigan, tayyor va qo‘shimcha qilish imkoniyati bor bo‘lishi nazarda tutiladi.

Mantiqiy deganda, ma‘lumotlar ichki ziddiyatlardan xoli bo‘lishi, tarkibiy qismlari o‘zaro hamohang bo‘lishi tushuniladi.

Til o‘rganish uchun keng qamrovli, qulay, mantiqiy yagona „Tavsiyalar“ni ishlab chiqish barcha uchun bir tizimda ishlash majburiyatini yuklaydi degani emas. Aksincha, „Tavsiyalar“ ochiq, moslashuvchan bo‘lishi va barcha tabiiy shart-sharoitlarga moslashtirilishi mumkin bo‘lmog‘i kerak.

Tavsiyalarda til bilish darajasining uch bosqichi belgilangan va ularning har biri ikkiga bo‘lingan. Har bir bosqichga oid bilim, ko‘nikma va malakalar, ta‘lim vositalari, usul va metodlar bayon qilingan.

Birinchi bosqich A bosqich deb nomlanib, tildan elementar(dastlabki, oddiy) holatlarda foydalanish bosqichini tashkil qiladi.

Ikkinchi bosqich B bosqich bo‘lib, u tilni mustaqil qo‘llay bilish bosqichi deyiladi.

Uchinchi bosqich C bosqich deb atalib, tilni yuqori darajada qo‘llay bilish bosqichi hisoblanadi. Har bir bosqich o‘z navbatida yana ikkita darajaga bo‘linadi. Tavsiyalarda har bir bosqich uchun to‘rt xil faoliyat turlari: o‘qish, tinglab tushunish, yozish va gapirishe‘tiborga olingan.

Xo‘sh, GER(CEFR) ning asosiy maqsadi nimalardan iborat?

1.Kompetensiyalar tilni egallash malakalarini davlatlararo qiyoslash imkonini beradi.

2.Kompetensiyalar yordamida til malakalarini davlatlar orasida o‘zaro tan olish osonlashadi.

3.Kompetensiyalar o‘quv rejalar va o‘quv qo‘llanmalar yaratish hamda imtihonlar tashkillash uchun asos(baza) taklif qiladi.

GER(CEFR) yuqoridagi maqsadlarga qanday erishadi?

1.Chet tilini o‘rganayotgan o‘quvchi uchun shu tildanaloqa vositasi sifatida foydalana olish uchun bilim va malakalar berish orqali.

2.Chet tilini egallash darajasini aniqlab beradi,ya’ni o‘lchov vazifasini bajarish orqali.

GER(CEFR)-o‘qish maqsadini belgilovchikatalog emas, balki kengqamrovli ko‘nikma va malaka mezonlarini taklif qiladiganmultifunksional nashrdir.

U chet tili darslarida foydalanish uchun ham, til bilish darajasini kategoriyalash uchun ham ishlatiladi. Har bir chet tili o‘qituvchisi o‘z darslarida

kompetensiyalardan o'quvchilar bilimlarini baholashda va ulardagi bo'shliqlarni to'ldirishda foydalanishi mumkin. GER(CEFR)Yevropadagi universitetlarda chet tilini bilish bo'yicha standart hisoblanadi va hech qanday ikkilanishsiz tan olinadi. Yevropada o'quvchilarga esa GER (CEFR)ga asoslangan quyidagicha o'lchov belgilangan: unga ko'ra, o'quvchi birinchi chet tilida B2daraja, ikkinchi chet tilida esa B1 darajaga ega bo'lishi kerak.

Har bir chet tilini o'rganuvchi shaxs Yevropa tillaridan birida o'zining til bilish darajasini aniqlamoqchi bo'lsa (nemischa: Selbsteinschätzung), kompetensiyalar taklif qilgan turli xil onlayn testlardan foydalanishi mumkin. Bunda test topshirayotgan shaxs birovning yordamisiz, mustaqil, xohlagan joyda, bepul, tez va haqqoniy o'z-o'zini baholash imkoniga ega bo'ladi. GER (CEFR) bo'yicha chet tilini egallash darajasini aniqlash uchun masalan, nemis tilida "Profile Deutsch", shuningdek, 14 ta boshqa Yevropa tillarida o'z-o'zini baholash uchun "Dialang System" tizimlaridan foydalanish mumkin.

Chet tilni egallashning har bir bosqichiga oid til imtihonlari GER(CEFR)ga asoslanib, "Yevropa til testlari yaratuvchilari assotsiatsiyasi" (inglizcha: ALTE) tomonidan darajalanadi va solishtiriladi. Har bir til bo'yicha imtihonlar maxsus tashkilotlar tomonidan o'tkaziladi. Nemis tilidagi til imtihonlari Gyote-Instituti, Avstriyada "Österreichische Sprachdiplom Deutsch(ÖSD)", "Tes-DaF-Institut"lari tomonidan amalga oshiriladi. Demak, bundan ko'rinib turibdiki, GER(CEFR)- chet tilini o'rganuvchilar va o'rgatuvchilar uchun shu tildagi bilim darajasini aniqlashda o'ziga xos o'lchov shkalasidir.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi va yurtimizda jahon standartlariga mos keluvchi raqobatbardosh kadrlar yetishtirish va ularning nufuzini oshirib borish uchun ham chet tillarning o'qitilishiga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2012 yil 10 dekabrda PQ-1875-son qaroriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga ham chet tillarni o'rgatish bo'yicha Yevropa Kengashining "Chet tillarni egallashning umumyevropa kompetensiyalari" (CEFR, GER) standartlari joriy qilindi. Xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida nutq ko'nikma va malakalarning deskriptorlari chet tillarni bilishning umumyevropa tizimiga o'zaro bog'liq holda olindi hamda ular sodda va tushunarli shaklda berildi.

Til o'rganish va o'rgatish Yevropa Ittifoqiga kiruvchi davlatlar manfaatlaridan kelib chiqib, o'zaro munosabatlarni kuchaytiradi, foydali xalqaro kommunikatsiyani jadallashtiradi, hamkorlikda madaniyatlardagi umumiylik va xususiylikka hurmat bilan qarashga o'rgatadi, turli ma'lumotlarni qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi, kishilarning o'zaro aloqalarini osonlashtiradi, xizmatga oid aloqalarda qulaylik yaratadi va o'zaro tushunishni ta'minlaydi. Yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirishda GER(CEFR) eng foydali va muhim xalqaro hujjat sifatida amalda foydalanib kelinmoqda. Shuningdek, yurtimizda

ham chet tillarni o'rgatishda GER(CEFR)dan samarali foydalanish- chet tili ta'limida yuqori natijalarga erishishga olib kelishi shubhasiz.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Trim, J. North, B. Coste, D. Gemeinsamer europäischer Referenzrahmen für Sprachen: lernen, lehren und beurteilen. 2001. München. Langenscheidt.
2. Glaboniat M. Müller, M. Rusch, P. Schmitz, H. Wertenschlag, L. Profile Deutsch. 2002. München. Langenscheidt.
3. Der Gemeinsame europäische Referenzrahmen für Sprachen in der Unterrichtspraxis. Praxisreihe Heft 12 Bildungsstandart für höchste Qualität an Österreichs Schulen.
4. Saydaliyev S. Chet tillarni egallashning umumyevropa kompetensiyalari. Namangan. 2019.